

Globalashuv sharoitida xotin-qizlarni ilmiy faoliyatini rivojlantirishda STEM yondashuv tatbiqi

Komilova Xurshida Toxirovna

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti DSc doktoranti, dotsent.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining ustuvor vazifalardan biri xotin-qizlarni ilmiy-innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar yoritilgan. Xotin-qizlarning ilm-fan va STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ilmiy sohalarda faoliyat sotsiologik tahlil natijalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, ilm, fan, xotin-qizlar, soha, tahlil, savol, ilmiy daraja, ijtimoiylashuv, tadqiqot.

Аннотация. В статье рассматривается образование женщин в области науки и их вклад в науку, деятельность женщин в различных областях науки. Освещены результаты исследования, направленного на определение особенностей социального образа женщин в сфере науки в Узбекистане.

Ключевые слова: образование, наука, наука, женщины, область, анализ, вопрос, степень, социализация, исследование.

Abstract. The article examines the education of women in the field of science and their contribution to science, the activities of women in various fields of science. The results of the research aimed at determining the characteristics of the social image of women in the field of science in Uzbekistan are highlighted

Key words: education, science, science, women, field, analysis, question, degree, socialization, research.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF–4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni tarixiy ahamiyat kasb etib, mamlakatimiz ta’lim va fan sohasini sifat jihatdan rivojlantirish, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimining sifati va samaradorligini tubdan oshirish, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirishga mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda [5;B.2]. “Aniq fanlar ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun ideal sohalar hisoblanadi. Bu fanlar tarqatilgan sohalarda o‘zgarishlarni o‘rganish, tahlil qilish va yangi bilimlar yaratish maqsadida ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Ilmiy tadqiqotlar fanlar sohasidagi savollarga javob topish, tahlil qilish, yangi nazariyalar va ko‘rsatkichlar yaratish, ushbu fanlarda rivojlanishni oshirish va amaliyotni rivojlantirish maqsadida olib boriladigan sistemli va ketma-ket tadqiqot jarayonlaridir” [2; B.432].

STEM – bu fan, texnologiya, muhandislik va matematikaning qisqartirmasi bo‘lib, butun dunyoga bo‘ylab qo‘llaniladi. YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan noto‘g‘ri qarashlar va gender stereotiplari xotin - qizlarni ilm-fan bilan bog‘liq sohalardan uzoqlashtirmoqda. Xususan, STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) tadqiqotlari an’anaviy ravishda erkaklar ustunlik qiladi va ayollardan kamroq ishtirok etayotganligi

takidlanmoqda [3. B.1]. Zero, ilm-fan va gender tengligi barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. An'anaviy fikrlashni o'zgartirish uchun gender tengligini targ'ib qilish, stereotiplarni yo'q qilish va xotin - qizlarni STEM sohasida ishtirokini orttirishga undash kerak.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30 sentyabr kuni Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga tashrif buyurib, yangilangan sharoitlar bilan tanishdi. "Ma'lumki, bugun mamlakatimizda aniq va tabiiy fanlarga alohida ahamiyat qaratilib, maktablar zamonaviy jihoz va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanmoqda. Bu o'qituvchilardan shunga moslashishni, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni talab qiladi. "STEM" laboratoriyasi pedagoglarni shu borada qayta tayyorlash va malakasini oshirishga xizmat qiladi" [6; B.1].

Shuningdek, xotin-qizlar erkaklarga qaraganda bazi (texnika, texnologiya, muhandislik) ilmiy sohalarda faoliyat olib borishlarida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Aniq va texnika fanlarida ayollarga qaraganda erkaklar ko'pchilikni tashkil qilmoqda. Bunda xotin-qizlarning qobiliyati bilan bog'liq deb o'ylash noto'g'ri, madaniy an'ana va oila, ijtimoiy muxit bilan bog'liq. Stereotiplardan holi bo'lishda xotin-qizlarning namunaviy rolini modellarini belgilaydigan STEM – (Science, Technology, Engineering, Mathematics) sohasida faoliyat yuritayotgan va yutuqlarga erishayotgan xotin-qizlarni hayotini ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish lozim.

STEM tushunchasi 1990-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida bakteriolog Rita Colwell tomonidan taklif qilindi, lekin bu soha 2000-yildan yuqori texnologiyalarga ega kompaniyalar o'zining ko'pchilik kadrlarining yangi texnologiyalarni qo'llashda yyetarli malakasi yo'qligi muammosi kelib chiqishi natijasida vujudga kelgan va bugungi kunda hukumat darajasida ta'lim tizimida joriy etilgan.

Ommaviy axborot vositalari va kinolarda tatqiqotchi olimlar xotin-qizlar xaqidagi tasvirlarni namoyish etish orqali kelajak avlodlarning ilm-fan haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish, qiziqishini oshirish va ayol olimlarni ko'payishiga olib keladi. Ko'plab filmlarning rejissyorlari erkak kishi bo'lib tasvirlarda olim va muhandislarni erkakni tanlaydi, chunki real hayotda ko'pchilik erkak bo'lishadi bu esa yana ekranda va hayotda erkak olimlar ko'payishiga olib keladi. "GWTeach - bu Jorj Vashington universitetining fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) yo'nalishlarini buyuk o'qituvchilarning keyingi avlodi bo'lish uchun tayyorlaydigan dasturi" [4; B.1].

Dunyo bo'yicha "ko'plab texnologiya sohasida malaka etishmasligiga qaramay, ayollar muhandislik soxalarining atigi 28 foizini va kompyuter 40 foizini tashkil qiladi" [7; B.1]. So'ngi yillarda esa O'zbekistonda ilm-fanning fizika-matematika va texnika fan tarmoqlar kesimida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi tasdiqlangan xotin-qizlar ulishi ortib bormoqda. (1,2-jadvallar)

2019-2022 yillarda ilm-faning fizika-matematika va texnika fan tarmoqlar kesimida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi tasdiqlangan xotin-qizlar							
№	Fan tarmog'i	Jami tasdiqlanganlar	Jumladan xotin-qizlar				
			Jami	2019	2020	2021	2022
1	Fizika-matematika	311	46	9	10	12	15
2	Texnika fanlari	1256	233	32	35	65	101
	Jami	1567	279	41	45	77	116

2019-2022 yillarda ilm-faning fizika-matematika va texnika fan tarmoqlar kesimida fan doktori (DSc) ilmiy darajasi tasdiqlangan xotin-qizlar							
№	Fan tarmog'i	Jami tasdiqlanganlar	Jumladan xotin-qizlar				
			Jami	2019	2020	2021	2022
1	Fizika-matematika	100	5	1	1	0	3
2	Texnika fanlari	220	36	12	7	11	6
	Jami	320	41	13	8	11	9

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

STEM ilmiy sohalarda faoliyati tabiiy va iqtisodiy fanlar yo'nalishida xotin-qizlarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda mustaqil tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish. **STEAM-** xotin-qizlarning kundalik hayotning ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini taqazo etadi. Bunday yondashuvdan maqsad - ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan.

Ko'pgina rivojlangan davlatlarda xotin-qizlarning aynan, STEAM-ta'limi orqali malakasini oshirish, ta'lim jarayonini ilmiy-tadqiqot, sanoatning rivojlangan yuqori texnologiyalari, injenerlik-konstruksiyasi, texnika-texnologiyalarning namunalarini ularning yoshiga mos ravishda yetkazib, axborot

kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, ularning ijodkorligini oshirish, yangiliklar yaratishga o'rgatish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Musurmanova O. «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari» ni shakllantirish.Uslubiy qo'llanma. –Toshkent: 2020. – 62 b.

2..Oktamov M va boshqalar Aniq fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda dars jarayonlarini tashkil etish. Новый Узбекистан: наука, образование и инновации, 1910, 432-434. Inlibrary.uz

3..UNESCO Institute for Statistics (2019). Women in Science (n°55), UIS/FS/2019/SCI/55, UIS Publ., Montreal, QC, Canada. Available online at:<https://unesdoc.unesco.org>

4..<https://gwteach.gwu.edu>

5..<https://oak.uz>

6..<https://president.uz/uz/lists/view/7584>

7..<https://www.un.org/ru/observances/women-and-girls-in-science-day>